

## O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Saydullayeva Oydina, G'oiyeva Nodira**

Namangan davlat pedagogika institute, Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti, Texnologik ta'lim yonalishi, TXT BU 24 guruh, talabasi

Ilmiy rahbar (Scientific advisor)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20227780>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o'rganiladi. Tadqiqotda ta'lim muassasalarida inklyuziv muhitni yaratishdagi infratuzilmaviy to'siqlar, pedagog kadrlarning metodologik tayyorgarligi hamda jamiyatdagi stereotiplarning ta'siri yoritib berilgan. Muallif O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish va inklyuziv ta'limni huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqadi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, O'zbekiston, ta'lim tizimi, maxsus ta'lim ehtiyojlari, ijtimoiy integratsiya, pedagogik kompetensiya, inklyuziv madaniyat

**Аннотация:** В данной статье на научно-аналитическом уровне рассматриваются актуальные проблемы и перспективы развития инклюзивного образования в Республике Узбекистан. В исследовании освещаются инфраструктурные барьеры в создании инклюзивной среды в образовательных учреждениях, вопросы методологической подготовки педагогических кадров, а также влияние общественных стереотипов на процесс инклюзии. Автор разрабатывает научно обоснованные рекомендации по адаптации образовательной системы Узбекистана к международным стандартам, модернизации педагогических подходов и совершенствованию нормативно правовой базы инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, Узбекистан, система образования, особые образовательные потребности, социальная интеграция, педагогическая компетентность, инклюзивная культура

**Abstract:** This article provides a scientific and analytical examination of the current challenges and prospects for the development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan. The research highlights infrastructure barriers in creating an inclusive environment within educational institutions, the methodological training of teaching staff, and the influence of societal stereotypes on the inclusion process. The author develops evidence-based recommendations for aligning Uzbekistan's educational system with international standards, modernizing pedagogical approaches, and strengthening the legal and regulatory framework for inclusive education.

**Keywords:** inclusive education, Uzbekistan, education system, special educational needs, social integration, pedagogical competence, inclusive culture

**O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim muammolaridan ba'zilari:**

Pedagogik-psixologik muammolar. Pedagogik kadrlarning yetishmasligi, ularning kasbiy tayyorgarlik sifatining pastligi, inklyuziv ta'lim metodikasiga oid fanlarning oliy ta'lim dasturlariga kiritilmaganligi, darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlarining mavjud emasligi.

Ijtimoiy muammolar. Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan noto'g'ri qarashlar, ota-onalarning inklyuziv ta'limga qarshilik ko'rsatishi, sog'lom bolalarning ota-onalari

va umumiy maktab o'qituvchilarining imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim muassasalarida o'qishiga rozi bo'lmasligi.

Moddiy-texnik muammolar. Umumiy ta'lim muassasalarining imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish uchun moslashtirilmaganligi, o'quv qo'llanmalar, darsliklar va didaktik materiallarning yetishmasligi, zarur jihozlar va texnik vositalarning mavjud emasligi.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri tug'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi: - ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik

-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; - o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash; - jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning extièjlarini qondirish, ijtimoiy xaètga erta moslashtirish; - imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruèbga chiqarish; - jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexrmuxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

### **Inklyuziv ta'limning muammolari.**

Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi; Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat; Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosi; Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinmaslik muammosi; Moddiy mablag' muammolari; Ta'lim muassasalarini moslashtirish; Sinfdagi o'quvchilar sonining ko'pligi; Kambag'allik; Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish; Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi; Favqulodda vaziyatlar , mojarolar, qochoqlar; Kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli savol tug'iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining naflari jixati juda ko'p ular sirasiga quyidagilar kiradi: - Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi; - Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi; - Kamsitishlarni oldini oladi; - Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

### **Inklyuziv ta'limning prinsiplari:**

1. Insonning qadr qimmatini, uning qobiliyati va yutuq'iga bog'liq emas. 2. Har bir inson o'ylash va xis qilish qobiliyatiga ega. 3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega. 4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj. 5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi. 6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj. 7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas , balki nimanidir qila olishidir. 8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi ta'lim muassasalarni o'z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umu o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim. Bu ta'lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-xunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan o'zining mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakter dasturi bilan farqlanadi.

Bolaning tarbiya va o'quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o'zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro'y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiya usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to'g'ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya tizimini har bir millat va elatning o'ziga xos tomonlari, milliy an'analari, urf-odatlar, davlatning maqsad-vazifalari hamda tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar bolaning rayiga, mustaqil bo'lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o'z-o'zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o'jarlik, qaysarlik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo'lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslanliklari oqibatida vujudga keladi.

Psixolog olimi L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda psixologik korreksiya usullari orqali tarbiyalash yo'llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Inklyuziv ta'lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: Salbiy munosabat; Hamjamiyatda ko'rinmaslik; Moddiy mablag' muammolari; Jismoniy moslashtirish; Sinfdagi o'quvchilar soni; Qaramlik; Jinsiy belgilarga qarab kamsitish; Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar.

Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muassasalari tizimida ta'lim tarbiya olishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan qarshiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir.

Hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq berkitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnashmalariga olib keladi.

O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim istiqbollari to'g'risida ma'lumot topilmadi. Biroq, 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 13 mingga yaqin o'quvchi inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan bo'lib, bu umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3,2 mingdan ortig'ida amalga oshirilgan.

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarni, jumladan, jismoniy, aqliy va sensor muammolari bor bolalarga ham teng ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan tizimdir. Bu ta'lim shakli bolalarning turli ehtiyojlarini qondirish, ta'lim sifatini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

### **O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun qanday loyihalar mavjud?**

#### **O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha ayrim loyihalar:**

2020-yilgi prezident qarori. Hujjat alohida ta'lim ehtiyojli bolalarga ta'lim berish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

2021-yilgi 5 yillik reja. Jamiyat va maktablarni imkoniyati cheklangan bolalarni qabul qilishga tayyorlashni nazarda tutadi.

2022–2024-yillarda amalga oshirilgan loyiha. Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro va Urganch shaharlaridagi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv texnologiya asosida ta'lim olgan.

2023-yilgi tadqiqot. Muallif O'zbekistondagi inklyuziv ta'limning rivojlanishini davlat, jamiyat va imkoniyati cheklangan bolalar hamda ularning ota-onalari manfaatlariga xizmat qilishini aytadi.

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son. <https://lex.uz/docs/-5044711>
2. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20/23 bet
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
4. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.
5. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
6. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlarini o'stirish metodikasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy habarlari
7. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZ ning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.
8. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. Science and innovation, 2(B11), 540-543.
9. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Models and methods in modern science, 2(5), 50-53.
10. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Modern Science and Research, 2(12), 466-472